

PRENATAL SKRINING- BO`LAJAK ONA VA TUG`ILADIGAN BOLA SOG`LOM BO`LISHING ASOSIY OMILI!

Mullayeva Navro`za Ma`murjon qizi

*Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi
Mutaxassislik fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Skrining tekshiruvidan o'tkazish, homilada irsiy va genetik nuqsonlarni aniqlash, skrining kimlarga zarur, homilador ayol sog`lomligi.

Kalit so'zlar: prenatal, skrining, homila, homiladorlik, UTT, tug`ma nuqson, irsiy kasallik.

Homila skrininggi — homilada irsiy va boshqa nuqsonlarning rivojlanish xavfini aniqlashga qaratilgan tibbiy tadqiqotlar kompleksi: laboratoriya va ultratovush yordamida tekshiruv (UTT) kiradi. “Skrining” so‘zi ingliz tilida “saralash” ma’nosini bildiradi.

Prenatal (tug‘riqdan oldingi) skriningdan maqsad:

Birinchidan, ayollarda homilador bo‘lish ehtimolini oldindan aniqlash. Bular: preeklampsiya, eklampsiya, fetoplatsentar yetishmaslik, homila rivojlanishining orqada qolishi, homilaning o‘smany qolishi.

Ikkinchidan, tug‘ilajak bolada irsiy va boshqa nuqsonlar bor-yo‘qligini aniqlash. Bosh miya, yurak, umurtqa pog‘onasi, qo‘l-oyoqlardagi nuqsonlar, Daun sindromi va boshqa ko‘pgina nuqsonlarni aniqlash uchun.

Prenatal skrining 5 turdan iborat: ultratovush yordamida tekshiruv; biokimiyoviy analiz; immunologik (homilaning rivojlanishiga putur yetkazadigan ToRCh-infeksiyalarga tekshirish: qizilcha, gernes, sitomegalovirus, toksoplazmoz, xlamidioz); sitogenetik analiz (qo‘sishimcha ko‘rsatmalar asosida qilinadi); molekulyar (juda kam uchraydigan irsiy kasallikkarda qilinadi).

Birinchi skrining homila rivojlanishining 10—13 hafta oralig‘ida qilinadi. Bunda umumiy qon analizi, umumiy siydik analizi, biokimiyoviy analiz, ToRCh infeksiya analizi, UTT va yana qo‘sishimcha tekshiruvlar holatga qarab qilinadi.

UTTda homilaning rivojlanishi: oyoq-qo‘llar mavjudligi, ular to‘g‘ri joylashganligi, ichki a’zolarning mavjudligi, bosh aylanasi — bu miya shakllanishini baholashga imkon beradi, bolaning uzunligiga qarab o‘sish surati baholanadi va homila haftasi aniqlanadi, yurak urishining chastotasi va ritmi o‘lchanadi, yo‘ldoshning kattaligi va birikkan joyi, kindik o‘qining tomirlari (irsiy kasallikkarda tomirlar soni kamayadi), homilaning bo‘yin bo‘shlig‘i qalinligi o‘lchanadi (irsiy kasallikkarda qalinlashgan bo‘ladi).

Quyida qaysi toifadagi ayollar uchun skrining zarur va o‘ta muhimligi

ko‘rsatilgan:35 yoshdan kattalar; bolalarida tug‘ma nuqson bo‘lgan homiladorlar; ilgari ketma-ket ikki homilasi tushgan; homila rivojlanishining dastlabki bosqichlarida mumkin bo‘lmagan dorilarni ichgan; dastlabki bosqichda yuqumli kasalliklarga chalingan homiladorlar; qarindoshlar orasidagi nikoh; ota va ona avlodida irsiy kasalliklar bo‘lsa; EKO yordamida homilador bo‘lganlar.

Ikkinci skrining 19—22 hafta oralig‘ida o‘tkaziladi . Bunda ham qon, siydk analizlari, qonning biokimiyoviy analizlari va UTT tekshiruvlari o‘tkaziladi. Onaning salomatligiga ko‘proq e’tibor beriladi. Bu davrda ko‘pgina yashirin kasaliklar qo‘zg‘ashi va avjiga chiqishi mumkin. Kamqonlik paydo bo‘lishi va bori esa rivojlanishi mumkin. Bu holatlar bolaning nimjon bo‘lib tug‘ilishiga olib keladi. UTTda bola, yo‘ldoshining joylashishi va rivojlanishiga e’tibor beriladi. Bu davrda yurakda, umurtqada, qorin a’zolarida bo‘ladigan nuqsonlar yaqqol aniqlanadi.

Uchinchchi skrining 33—36 hafta oralig‘ida o‘tkaziladi. Analizlar va UTT tekshiruvlari o‘tkaziladi. Onaning salomatligiga e’tibor beriladi. Oyoqda shishlar paydo bo‘lishi, qon bosimi oshishi va boshqa holatlar kuzatilishi mumkin. Bunga o‘z vaqtida e’tibor berish kerak. UTTda bolaning taxminiy og‘irligi, bo‘yi, ona qornida qanday joylashganligiga e’tibor beriladi. Bola tug‘ilishiga tayyorgarlik ko‘riladi. Bolaning ona qornida ba’zi joylashishlari, masalan, ko‘ndalang yoki yo‘ldoshning juda pastda joylashishi, ba’zan tug‘ish yo‘lini to‘sib qo‘yadi va yana boshqa o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda bolani “kesarevo” operatsiyasi yo‘li bilan olishga to‘g‘ri keladi. Unda homiladorlarning tug‘ish paytini rejalalashtirib va operatsiyaga belgilash kerak.

Bolaning sog‘lom va baquvvat tug‘ilishi uchun skrining tekshiruvlarini o‘z vaqtida o‘tkazish kerak. Sog‘lom bola ona salomatligiga bog‘liq. Homilador ayollarda gormonal, psixologik va yana boshqa ko‘pgina o‘zgarishlar bo‘ladi, uni atrofidagi insonlar bu o‘zgarishni tushunib, unga psixologik yordam berishlari muhim sanaladi.

Adabiyotlar:

1. „Akusherlik va ginekologiya” Ayupova F.M. , Ixtiyorova G.A. , Matrizayeva G.J.
2. „Jamoada hamshiralik ishi” Mustafoyeva Z.U.

Internet saytlari:

WWW.Googleuz.

[WWW.Arxiv .uz](http://WWW.Arxiv.uz)

Ziyo net .uz